

## URUG'LI MEVALARNI EKSPORT QILISH

**Abdiyev Anvarjon Almirzayevich**

*“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universitetining Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari.*

**Turg’unboyeva Noibaxon Dilyorbek qizi**

*“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universitetining Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola Respublikamizda yetishtirilayotgan meva va rezavor mevalarni boshqa davlatlarga eksport qilish salohiyatini yuksaltirish, xalqaro sertifikatlar olish, mamlakatimizda talab va takliflarni joriy qilish, jahon bozorida O‘zbekiston nafaqat o‘rniga balki, yursak o‘rinlarga erishishi ko‘zda tutilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *intensiv bog‘lar, eksport konditsiyasi, sertifikatlash, gigiyenik sertifikat, munofiqlik sertifikati, fotosanitariya sertifikati, infratuzilma obyektlari.*

**Annotation:** *This article is intended to increase the potential of exporting fruits and berries grown in our, Republic to other foreign countries, to obtain international certificates, to introduce demand and supply in our country and to achieve not only a place in the world market, but also a high place in Uzbekistan.*

**Key words:** *Intensive gardens, export condition, certification, hygienic certificate, conformity certificate, photosanitary certificate, infrastructure facilities.*

**Аннотация:** *Данная статья призвана повысить потенциал экспорта фруктов и ягод, выращенных в нашей Республике, в другие зарубежные страны, получит международные сертификаты, наладить спрос и предложение в нашей стране, а также добиться не только места на мировом рынке, но и высокое место в Узбекистане.*

**Ключевые слова:** *интенсивные сады, экспортное состояние, сертификация, гигиенический сертификат, сертификат соответствия, фотосанитарный сертификат, объекты инфраструктуры.*

Eksport – O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun samarali rivojlanish manbai sanaladi. Mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarish va boshqa mamlakatlarga sotish yurtimizning yanada taraqqiy topishi va turmush tarzining o‘o‘sishida muhim ahamiyat kasb etadi. Tashqi savdo korxonalarining barqaror rivojlanishiga va iqtisodiy samaraga erishishga yordam beradi, bu esa yangi ish o‘rinlarini yaratish va aholi daromadlarini yanada oshirishga imkon beradi.

Sifatli yetishtirilgan mahsulotni tashish, saqlash va qayta ishlash mobaynida dastlabki xossalarni yo‘qotib sifatsiz mahsulotga aylanishi mumkin. Respublikamizda yetishtirilayotgan meva va rezavor mevalarni chetga eksport salohiyatini yuksaltirish, xalqaro sertifikatlar olishni talab va takliflarni mamlakatimizda joriy qilinishida

sustkashliklarga yo'l qo'yilmoqda. Mamlakatimizda bog'dorchilikni rivojlantirishga keng yo'l ochib berilgani intensiv bog'larni ko'payishiga olib keldi. Bu borada bog'dorchilik xo'jaliklari yuqori marralarga erishib, xosil salmog'ini yildan-yilga oshirib bormoqdalar. Biroq mahsulotning ko'pligi xom-ashyoning qayta ishlashning kamligi narxni tushib ketishiga olib kelmoqda.

Qishloq xo'jalik mahsulotlariga jahon bozorida qo'yiladigan talablar eksport konditsiyasida o'z ifodasini topadi. Eksport qilinuvchi barcha mahsulotlar ushbu standartlarda ko'rsatilgan konditsiyalarga javob berishi lozim. Mahsulotni eksport qilish ana shu mahsulotlarni sifatli ekanligidan dalolat beradi.

Eksport qilinayotgan mahsulotni sertifikatlash- mahsulotni bojxonada rasmiylashtirish. Sotiladigan mahsulotning turiga qarab quyidagi sertifikatlar olinadi:

Gigiyenik sertifikat. Ariza beriladi, namuna taqdim etiladi va to'lov qilinadi. Bu sertifikat Davlatsanitar-epidimiologiya nazorati organlari tomonidan beriladi

Munofiqlik sertifikati. O'zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish bo'yicha milliy organi O'zbekiston standartlashtirish metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi hisoblanadi.

Fotosanitariya sertifikati. "O'z bosh davlatlarga karantin" o'simliklar karantin bo'yicha davlat inspeksiyasining mahalliy boshqarmasi tomonidan beriladi. Transport ichki tomoni majburiy ravishda fumigatsiya qilinib zararsizlantiriladi va ushbu haqida dalolatnoma tuziladi.

Urug'li mevalarni eksport uchun tanlash. Eksport talablari quyidagilar:

Shkastlanmagan.

Tashqi begona, yot moddalarsiz.

Zararli kasallik va zararkunandalarsiz.

Tashqi tarafi o'ta nam bo'lmasligi.

Begona o'tlar va begona xidlardan holi bo'lishi lozim.

Tadbirkorlarga eksportda qulayliklar yaratish maqsadida Prezidentimizning 2018 yil 20 dekabr kungi Eksportga ko'maklashish va uni rag'batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori ijrosini ta'minlash uchun tadbirkorlik subyektlariga qishloq xo'jaligi sohasida ishlatiladigan texnika vositalari, meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlaydigan va quritadigan uskunalarni xorijiy davlatlardan lizing asosida yetkazib berish bo'yicha takliflar o'rganilmoqda. Asosiy maqsad yurtimiz ishlab chiqaruvchilarga xalqaro sifat standartlarini joriy etishga yordam berish. O'zbekiston may oyida meva va sabzavotlarni eksport qilishda yuqori ko'rsatkichlarga erishdi xorijga 120 ming tonna umumiy qiymati 150 million dollarli meva va sabzavotlar eksport qilindi. 2018 yil davomida eksport qilinadigan meva va sabzavotlarning 60 % Rossiyaga jo'natildi. Bu Rossiyaning "Magnit", X5 Retail Group, "Meridian", "Xolidey" va boshqalar bilan to'gridan-to'g'ri shartnomalar, shuningdek Qozog'istondan eksport orqali yetkazib berildi. Eksportni ko'paytirishning yana bir yo'nalishi bu meva va sabzavotlarni yagona UzAgro brendi asosida yetkazib berishdir

Tashqi savdo vazirligi meva-sabzavot mahsulotlari eksporti sohasidagi faoliyatni muvofiqlashtiradi, eksport qiluvchilarga sotish bozorlarini izlashda yordam beradi, ular bilan har oyda uchrashuvlar otkazadi. Meva-sabzavot mahsulotlari yetishtiruvchilar hamda eksport qiluvchilar Ozbekiston meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qiluvchilar uyushmasiga birlashadilar. Bunda ularga SSP, Adliya vazirligi va biznes-ombudsman komak beradi.


Keyingi yilning mart oyiga kelib internetda Meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qiluvchilar axborot portali ishga tushiriladi. U «TradeUzbekistan.com» elektron savdo maydonchasi, DSQ va DBQ axborot tizimlari bilan integratsiyalanadi. Portal meva-sabzavot mahsulotlari yetishtiruvchilar va eksport qiluvchilar, salohiyatli import qiluvchilar va h.k. togrisida axborot olish, shuningdek eksport jarayonining barcha bosqichlarini real vaqt rejimida kuzatish imkonini beradi.

Meva sabzavot mahsulotlarini eksport qilish mexanizmi ancha soddalashtirildi. Endi yuridik shaxslar uni dastlabki to'lovsiz, bank kafolatini rasmiylashtirmasdan hamda eksport shartnomasini siyosiy va tijorat xavflaridan sug'urta polisiz eksport qilishlari mumkin. Tadbirkorlik subyektlari o'zlariga ajratilgan yer uchastkalarida meva-sabzavot mahsulotlarini bevosita ularni yetishtirish joylarida sug'orish, tayyorlash va saqlash bo'yicha infratuzilma obyektlari qurish uchun yengil konstruksiyalarni qurishlari mumkin.

2022 yilning yanvar avgust oylarida xorijga meva va sabzavotlar eksport qilgan hududlar:

Farg'ona viloyati	197,1 ming t
Toshkent viloyati	154 ming t
Samarqand viloyati	127 ming t
Xorazm viloyati	103 ming t
Surxondaryo viloyat	99 ming t
Andijon viloyati	78,6 ming t
Toshkent shahar	67,5 ming t
Namangan viloyati	67 ming t
Jizzax viloyati	66 ming t
Buxoro viloyati	52 ming t
Sirdaryo viloyati	35 ming t
Qashqadaryo viloyati	29 ming t
Qoraqalpog'iston Respublikasi	19 ming t

O'zbekistonda 2022 yilning 8 oyida eng meva va sabzavot mahsulotlarini eksport qilgan davlatlar:



Mamlakat eksport salohiyatini kengaytirish, yangi bozorlarni o'zlashtirish va budjetga tushumni ko'paytirish meva sabzavot mahsulotlarini eksport qiluvchilar uchun qay darajada qulay shart sharoitlar yaratilgani bilan chambarchas bog'liq. O'zbekistonda bu borada zamonaviy bozor mexanizmlarini joriy etish, eksport qilish tartibini soddalashtirish orqali uning hajmini yuksaltirish, logistika tizimini rivojlantirishga qaratilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimizning 2022 yil 17 oktabrdagi "Meva sabzavot mahsulotlarini tashqi bozorlarga chiqarish samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida" gi qarori eksportga mahsulot yetkazib berishni ko'paytirishni rag'batlantirishga katta turtki beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Vazirlar Maxkamasining "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzuridagi O'zbekiston qishloq xo'jalik texnikasi va texnologiyalarini sertifikatlash va sinash davlat markazi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida" 2013 yil 1 avgustdagi 214-son qaroriga kiritilayotgan o'zgartirishlar va qo'shimcha.
2. Bo'riyev H Ch., Jo'rayev R., Alimov O. Meva sabzavotlarni saqlash va daslabki ishlov berish. T.: Mehnat, 2002. 25-36b.
3. Azizov A.SH., Islamov S.Y., Suvanova F.U., Abduqayumov Z. Saqlash omborlari va qayta ishlash korxonalarini loyihalashtirish asoslari va jixozlari.-Toshkent, 2014 b. 5-7
4. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)